

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**"RO'YXATGA OLINDI"**

**№ VM-343-53408-4.03**

**"1" iyul 2003 y.**

**"TASDIQLANDI"**

**O'zbekiston Respublikasi**

**Oliy va o'rta maxsus**

**ta'lim vazirligi**

---

**"8" iyul 2003 y.**

**ChET MAMLAKATLAR SOLIQ TIZIMI  
fanidan  
DASTUR**

**Oliy ta'limning 340000 - "Biznes va boshqaruv"  
ta'lim sohasidagi 5340800 - "Soliqlar va  
soliqqa tortish" bakalavriat yo'nalishi uchun**

**Toshkent - 2003**

**Tuzuvchilar:** dots. Qo'zieva N.,  
k.o'q. Mirjalilov Sh.

**Taqrizchilar:** dots. Usanov A.,  
dots. Almardonov M.

Iqtisodiyotda bozor munosabatlarini tartibga soluvchi vositalarni vujudga keltirish va mustahkamlash, iste'mol bozorini barqarorlashtirish va pirovard natijada aholining turmush darajasini oshirishni ta'minlashga, mustaqil O'zbekistonning iqtisodiy jihatdan jahon hamjamiyatiga qo'shilishiga qaratilgan chora-tadbirlar tizimida davlatning to'g'ri va adolatli soliq siyosati alohida o'rinni egallaydi va muhim ahamiyatiga ega bo'ladi. Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida soliq tizimida ham katta o'zgarishlar yuz bermoqda. Respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishda bu boradagi qonunlarni takomillashtirish muhim o'rin tutadi. Soliq to'lovlari, soliq imtiyozlari bilan birgalikda chet mamlakatlarning soliq tizimi, tajribalarini respublikamizda foydalanish imkoniyatlarini o'rganish va solishtirma tahlil o'tkazishdan iboratdir.

В соответствии с государственным стандартам Высшего образования дисциплина "Налоги и налогообложение является предметом по специальности направления "Налоги и налогообложение". В процессе преподавания данной дисциплины раскрываются содержание таких тем, как механизм уплаты налоговых и неналоговых платежей юридическими и физическими лицами. Данная программа одобрена и рекомендована Министерством Высшего и средне-специального образования Республики Узбекистан.

State's true and justice tax policy has main part and importance in oriented actions of substations and strengthening regular means of market relations of economy, stabling consumption market and the final objectively improve people's life level, jointing of independence Uzbekistan to world community. Great changes are happening in tax system along the transition to a market relations. Upgrading of laws has important part in deepening of economic reforms in Republic. Our prospects are to learn tax payments, tax allowances with foreign counties' tax system, possibility of using of their experiences in our Republic and comparative analysis. Subject of "Foreign countries tax system" has main tasks and they are to teach industrialized counties tax system and their relations with budget, organizing calculations. This subject's teaching program recommended to students, which are studying in high education system, specialization of "Finance and credit".

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 25 aprel 9-sonli bayonnoma).

Dasturlar to'plami O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul 37-sonli majlis bayoni).

## **1. SO'Z BOSHI**

### **O'quv fanining maqsadi va vazifalari, boshqa fanlar bilan bog'liqligi**

O'z maqsadidan kelib chiqqan holda rivojlangan mamlakatlarning soliq tizimi va byudjet bilan munosabatlari, byudjetda taqsimlanishi, hisob-kitoblarni tashkil etishni o'rgatish "Chet mamlakatlar soliq tizimi" fanining asosiy vazifasidir. Mazkur fanning o'quv dasturi Oliy o'quv yurtlarida "Moliya va kredit" mutaxassisliklarida ta'lim olayotgan talabalar uchun tavsiya etiladi.

Ushbu fanni o'zlashtirishda talaba qator fanlar bilan mazmunan tanish bo'lishi lozim. Jumladan, "Soliqlar va soliqqa tortish", "Soliq nazariyasi", "Moliya nazariyasi", "Iqtisodiy nazariya" fanlari puxta o'rganilishi kerak. "Chet mamlakatlar soliq tizimi" fani "Buxgalteriya hisobi", "Informatsion texnologiyalar", "Iqtisodiy tahlil" kabi fanlari bilan ham uzviy bog'liqdir.

### **O'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga talablar**

"Chet mamlakatlar soliq tizimi" fani bo'yicha talabalarning bilimi, uquvi va ko'nikmasiga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

- jahon soliq modellarini tahlil qilishga;
- chet mamlakatlardagi soliq tizimining amal qilish tartibini o'rganishga;
- jahon soliq tizimining har bir soliq turi bo'yicha o'ziga xos xususiyatli tomonlarini tahlil qilishga;
- xorijiy mamlakatlar soliq tizimini respublikamiz soliq tizimi bilan solishtirma tahlil qilishga;
- qilingan tahlillar natijasida mustaqil amaliy va nazariy takliflarni keltirishga o'rganadi.

### **Auditoriya mashg'ulotlari turlarining soatlar hajmi bo'yicha tavsiyalar**

Oliy kasbiy ta'limning "Soliqlar va soliqqa tortish" yo'nalishi davlat standartlarida mazkur kursga 189, shu jumladan 54 ma'ruza, 72 amaliy, 63 mustaqil ta'lim soatlari ajratilgan.

#### **Talabalar bilimni baholash uchun o'tkaziladigan nazorat tadbirlari miqdori**

"Chet mamlakatlar soliq tizimi" o'quv muddatining kursning VI-VII semestrlarida o'qitiladi. Mazkur fanni o'qitishda talabalarning bilimni baholash to'rt marta oraliq, to'rt marta joriy hamda yakuniy nazorat shaklida o'tkaziladi. Yakuniy nazorat yozma ish shaklida tashkil etiladi.

#### **Kompyuter, informatsion va boshqa zamonaviy o'qitish texnologiyalarni qo'llash**

Ushbu fanni o'zlashtirishda ilg'or pedagogik texnologiyalarning quyidagi tarkibiy qismlaridan:

- fanni mazmunini ko'rsatuvchi ko'rgazmali qurollardan foydalanish;
- tayanch iboralarni va so'z lug'atlaridan nazorat ishini tashkil etish;
- chet mamlakatlarda soliq turlari bo'yicha ishlab chiqilgan hisob-kitob shakllari bilan yaqindan tanishish;
- mavzular bo'yicha slaydlar, kompyuter dasturlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

#### **Ish dasturini tuzishga oid uslubiy tavsiyalar**

Ushbu fanni chuqur o'rganish boshqa maxsus fanlarni talabalarga o'rgatishda asos bo'ladi va oliy o'quv yurtini tugatgandan so'ng kelgusi amaliy faoliyatida olgan bilimlarini qo'llashga kerak bo'ladi.

## **2. FAN DASTURI**

### **"Chet mamlakatlar soliq tizimi" fani bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari**

#### **Rivojlangan davlatlarda soliqlarning mohiyati**

Soliq munosabatlarining yuzaga kelishi va uning rivojlanishi. Soliqlarning davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda va xorijiy davlatlar iqtisodiyotini tartibga solishdagi roli. Soliqlar to'g'risidagi fanlarning paydo bo'lishi va uning rivojlanishi. Soliqlar to'g'risida dunyo iqtisodchi olimlarining qarashlari. Soliqlarning tovar-pul munosabatlarini takomillashgan bosqichidagi ahamiyati. *Xorijiy davlatlar soliq tizimi tuzilishiga umumiy tavsif. Soliqqa tortishdagi umumiy tamoyillar va olinish usulidagi tafovutlar. Davlatning iqtisodiy va soliq siyosatining uyg'unlashuvi. Soliq siyosatidagi elastiklik. Soliq bo'yicha moliyaviy jarimalarning roli. Soliq xizmati organlarining*

ishlarini tashkil etish usullari, ularning huquq va majburiyatlari. Soliq inspeksiyasi ishini markaziy avtomatlashgan elektron usuliga o'tkazilishining mohiyati va ularning tajribalaridan respublikamiz soliq tizimi amaliyotida foydalanishning ahamiyati.

### **AQSh davlati soliq tizimining tuzilishi**

AQSh davlat tuzilishi. *AQSh byudjet-soliq tizimining tuzilishi va soliq tamoyillarining o'ziga xos xususiyatlari. 1986 yilda o'tkazilgan soliq islohoti. Soliqlarni guruhlash: daromad soliqlari, iste'mol soliqlari, kapital soliqlari, korporatsiyalardan olinadigan soliq. Soliq ob'ekti, stavkalari va soliqdan engilliklar, deklaratsiyani to'ldirish tartib-qoidalari.*

Mol-mulk soliqlari, meros, sovg'alar va transport vositalaridan olinadigan soliqlar. Aktsizlar va bojxona bojlari. Ishbilarmonlardan olinadigan soliqlar. Soliq tizimida soliq imtiyozlarining qo'llanilishi. Soliq tushumlarini nazorat qilib borish tartiblari va usullari. Federal, shtat va mahalliy soliqlarning byudjet daromadlaridagi hissasi. To'g'ri va egri soliqlarining umumsoliq tushumlaridagi salmog'i. Federal va region soliqlarni belgilash asoslari.

### **Buyuk Britaniya davlati soliq tizimining tuzilishi**

Buyuk Britaniya soliq tizimining tuzilish tamoyillari, soliqlarning guruhlanishi. *Byudjet daromadlarining shakllanishida to'g'ri va egri soliqlarning hissasi. To'g'ri soliqlar: daromad solig'i, korporativ soliq, mol-mulk solig'i, transport vositalaridan soliq; Egri soliqlar: QQS, aktsizlar, shou-biznesdan soliq, bojxona bojlari, ot va it poygalaridan yig'im. Soliqqa tortishda munitsipalitetlarning xuquqlari. Soliq idoralari tomonidan soliq tushumlarini nazorat qilib borish tartibi. Soliqlarning mamlakat iqtisodini rivojlantirishdagi ahamiyati.*

### **Germaniya davlati soliq tizimining tuzilishi**

Jahon tizimida Germaniya davlatining iqtisodiy qudrati. Germaniya davlatining moliya tizimining tuzilishi. *Byudjet tuzilishi jarayoni. Birlashgan Germaniya davlati daromadlari va davlat daromadlarida soliqlarning tutgan o'rni. Germaniya davlati soliq tizimi tuzilishi va uning o'ziga xosligi. Soliq tizimi zvenolari: umumdavlat, federal, er va obshina soliqlari.*

Germaniyada asosiy soliq turlarini hisoblash va undirish tartibi: daromad solig'i, QQS, import oborotidan soliq, er solig'i, xunarmandchilikdan soliqlar va transport vositalari egalaridan soliq. To'g'ri va egri soliqlar. Soliq stavkalari, soliqlar bo'yicha imtiyozlarning qo'llanilishi.

### **Frantsiya davlati soliq tizimining tuzilishi**

Frantsiya davlati soliqqa tortilish printsiplari, soliqlarning tuzilishlari va ularning Ovroqpa Iqtisodiy Ittifoqi davlatlariga nisbatan o'ziga xosligi.

Soliqlarning turlari. Daromad solig'i: jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i: korxonalarining daromad solig'i; yuqori foydani va qimmatbaho qog'ozlarga qo'yiladigan daromadlarni soliqqa tortishning o'ziga xos tartibi. Iste'mol solig'i. QQS. Egri soliqlar va bojxona boji. *Kapital uchun soliq. Ro'yxatga olish badallari. Mulk egalari va merosxo'rlik soliqlari. Davlat boji va analogik badalliklar.* To'g'ri mahalliy soliqlar.

### **Yaponiya davlati soliq tizimining tuzilishi**

Ikkinchi jahon urushidan keyingi soliq islohoti. *Yaponiya davlati hokimiyat organlarining tuzilishi. Byudjet soliq tizimining tuzilish asoslari, o'ziga xos xususiyatlari va Evropa mamlakatlari soliq tizimi bilan solishtirma taqqoslash.*

Soliqlarning guruhlanishi: davlat soliqlari, prefektura soliqlari, mahalliy soliqlar. To'g'ri daromad soliqlari: jismoniy shaxslardan daromad solig'i, yuridik shaxslardan daromad solig'i. Mol-mulkka to'g'ri soliqlar: er solig'i, mulk solig'i, olingan foiz daromadlariga soliq. To'g'ri va egri iste'mol soliqlari: sotuvdan soliq, xizmatlarga soliq, aktsizlar.

Soliqlarning byudjetlar o'rtasida taqsimlanishi. Soliqlarning byudjet daromadlaridagi salmog'i.

### **Kanada davlati soliq tizimining tuzilishi**

*Kanada davlati soliq tizimi tuzilishi printsiplari va mexanizmlarining tashkil etilishi. Soliqlarning tuzilishi va ularni o'ziga xos xususiyatlari.* Byudjet tizimining bo'g'inlari va mos ravishda soliqlarning byudjetga daromad keltirish mexanizmi. Davlat hokimiyati tuzilishining soliq tizimiga ta'sir etishi.

Soliqlarning turlari, daromad solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, korxonalar daromadiga soliq. *Egri iste'mol soliqlari: sotuvdan soliq, bojxona boji, xizmatlarga soliq. Mulk soliqlari: er solig'i, erdan foydalanganlik uchun soliq.* Soliqlarning ishlab chiqarish va iqtisodiyotga ta'siri.

### **Rossiya Federatsiyasi soliq tizimining tuzilishi**

Rossiya Federatsiyasi soliqlar klassifikatsiyasi. Federal, respublika va mahalliy soliqlar tarkibi. Korxonalar va tashkilotlar foydasiga soliq: soliqning mohiyati, soliq stavkasi, soliq to'lash muddati, soliq imtiyozlari, hisoblash tartibi. Jismoniy shaxslar daromadiga soliq; soliqning mohiyati, soliqqa tortiladigan daromad va soliq imtiyozlari. Qo'shilgan qiymat solig'i. QQSdan imtiyozlar. QQSning asosiy stavkalari. Boshqa

to'lovlar. Bojxona bojlari. Korxonalarda nafaqa va ijtimoiy sug'urta. Ijtimoiy ta'minot fondlariga badallar.

### **Shveysariya davlati soliq tizimining tuzilishi**

Shveysariya davlati organlarining tuzilishi. Byudjet soliq tizimi tuzilish printsiplari va asoslari. Soliqlarni byudjet bo'g'larida taqsimlanishi. *Korporatsiyalardan soliq, QQS, mol-mulk solig'i. Mol-mulka milliy soliq, daromadga milliy soliq, mahalliy solig'i.* Aholi daromadlarini soliqqa tortishdagi muhim xususiyatlar, soliqdan engilliklar. Soliqlarning iqtisodga ta'siri. Soliqlarning byudjet daromadlaridagi salmog'i va ularning tahlili.

### **Italiya davlati soliq tizimining tuzilishi**

Italiya davlatida soliqlarning vujudga kelishi va ahamiyati.

*Italiyada bilvosita soliqlarning xususiyatlari. QQS stavkasi, QQS bo'yicha beriladigan imtiyozlar. Aktsiz solig'i stavkalari, to'lash muddatlari, hisoblash tartibi.* Jismoniy shaxslar daromadlariga soliq. Sof daromad tushunchasi. Erga egalik qilish solig'i. Ijaradan olingan daromadga soliq. Jismoniy shaxslar daromadiga soliqning stavkalari. Italiyaning munitsipal va boshqa soliqlar tarkibi. Reklama solig'i. Reestr yig'implari. Davlat yig'implari. Meros va sovg'aga soliq. Italiyada soliqlarni undirish usullari.

### **Daniya davlati soliq tizimining tuzilishi**

*Daniya soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari. Federal va mahalliy soliqlar. Soliq to'lovchilarni guruhlash.*

*Kapital bo'yicha operatsiyalarni soliqqa tortish.* Investitsiyalarga solinadigan soliq. Korxonalar daromadini soliqqa tortish tartibi. Soliqqa tortiladigan daromadning tarkibi. Soliq stavkalari va soliqlarni hisoblash mexanizmi.

### **Avstriya davlati soliq tizimining tuzilishi**

*Avstriya davlati iqtisodiy rivojlanishida soliqlarning o'rni. Soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari. Soliqlarning guruhlanishi. Byudjet tizimi va unga mos ravishda soliqlarning taqsimlanishi.*

Soliqqa tortishda belgilangan shartlar, maxsus qoidalar va deklaratsiyaga oid qoidalar. Korxonalardan olinadigan soliqlar: daromad solig'i, QQS, tashqi tijoratdan

solig. Mol-mulk solig'i, aktsizlar, muhr solig'i, bojxona boji, egalik solig'i, import solig'i.

Aholidan olinadigan soliqlar: daromad solig'i, mol-mulk solig'i, transport sotib olishdan soliq, merosdan soliq. Soliqlarning byudjet daromadlaridagi salmog'i va ularning tahlili.

### **Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida soliq tizimining tuzilishi (Rossiya Federatsiyasidan tashqari)**

MDH mamlakatlari soliqlar to'g'risida umumiy tushuncha. Soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari. Soliq organlarining tuzilishi va vazifalari. Soliq tizimining tarkibiy tuzilishi. Soliq turlari. Egri va to'g'ri soliqlar. Qo'shilgan qiymat solig'i. Jismoniy shaxslar daromadiga soliq. Soliq stavkalari. Soliqqa tortish muddatlari. Soliqlarni hisoblash mexanizmi. Umumdavlat va mahalliy soliqlar. Mol-mulk solig'i. Er solig'i. Mahalliy yig'imlar tarkibi.

MDH davlatlari bilan Evropadagi boshqa davlatlar soliqlari o'rtasidagi o'zaro o'xshash va farqli xususiyatlar.

### **Boshqa davlatlar soliq tizimi va ba'zi bir soliq turlarining o'ziga xos xususiyatlari**

*Turkiya davlati soliq tizimi. Niderlandiya davlati soliq tizimi. Suriya davlati soliq tizimi. Angliya davlati soliq tizimi.*

Korxonalaridan olinadigan soliqlar; Aholidan olinadigan soliqlar; To'g'ri va egri soliqlar; Davlat va mahalliy soliqlari.

### **Rivojlangan xorijiy davlatlarning soliq tizimi tajribalarini respublikamizda foydalanish imkoniyatlari**

AQSh davlati va O'zbekiston soliq tizimining o'zaro qiyosiy tahlili. *AQSh, Evropa va Osiyo davlatlari ijobiy tajribalaridan foydalanishning ahamiyati.*

## **3. AMALIY MASHG'ULOTLAR MAVZULARINING MAZMUNI**

### **Rivojlangan davlatlarda soliqlarning mohiyati**

Soliq munosabatlarining yuzaga kelishi va uning rivojlanishi. Soliqlarning davlat byudjeti daromadlarida tashkil topishdagi va xorijiy davlatlar iqtisodiyotini tartibga solishdagi roli. Soliqlar to'g'risidagi fanning paydo bo'lishi va uning rivojlanishi. Soliqlarning tovar-pul munosabatlarini takomillashgan bosqichidagi ahamiyati. Xorijiy davlatlar soliq tizimi tuzilishiga umumiy tavsif\*. Davlatning iqtisodiy siyosati bilan soliq



siyosatining uyg'unlashib ketishi. Soliq bo'yicha moliyaviy sanksiyalarning roli. Soliq boshqarmalarining ishlarini tashkil etish usullari, ularning huquq va majburiyatlari\*. Soliq inspeksiyasi ishini markaziy avtomatlashgan elektron usuliga o'tkazilishining mohiyati va ular tajribalarini respublikamiz amaliyotida qo'llanilish ahamiyati.

### **AQSh davlati soliq tizimining tuzilishi**

AQSh davlat tuzilishi. AQSh byudjet tizimi, shu jumladan, soliq tizimini tuzilishi va soliq tamoyillarining o'ziga xos xususiyatlari\*. 1986 yilda o'tkazilgan soliq islohoti. Soliqlarni guruhlash: daromad soliqlari, iste'mol soliqlari, kapital soliqlari, deklaratsiya to'ldirish tartibi qoidalari, korparatsiyalardan soliq\*. Soliq ob'ekti, stavkalari va soliqdan engilliklar.

Mol-mulk soliqlari. Aktsizlar va bojxona bojlari. Soliqlardan engilliklarni iqtisodiy ahamiyati. Soliq tushumlarini nazorat qilib borish tartiblari, usullari. Federal, shtat va mahalliy soliqlarni byudjet daromadlaridagi hissasi.

### **Buyuk Britaniya davlati soliq tizimining tuzilishi**

Buyuk Britaniya soliq tizimi tuzilishi tamoyillari, soliqlarning guruhlanishi\*. To'g'ri soliqlar: daromad solig'i, korporativ soliq, mol-mulk solig'i, transport vositalaridan soliq; Egri soliqlar: QQS, aktsizlar, o'yin biznesdagi soliq, bojxona bojlari, ot va it poygalaridan yig'im. Soliqqa tortishda munitsipalitetlarning xuquqlari\*. Soliqlarning mamlakat iqtisodini rivojlantirishdagi ahamiyati.

### **Germaniya davlati soliq tizimining tuzilishi**

Jahon tizimida Germaniya davlatining iqtisodiy qudrati. Germaniya davlati moliya sistemasining tuzilishi\*. Byudjet tuzilishi va jarayoni. Birlashgan Germaniya davlati daromadlari va davlat daromadlaridan soliqlarning tutgan o'rni. Germaniya davlati soliq tizimi tuzilishi va uning o'ziga xosligi\*.

Germaniyada asosiy soliq turlarini hisoblanishi va olinish tartibi: daromad solig'i, QQS, import oborotidan soliq, er solig'i, xunarmandchilikdan soliqlar va transport vositalari egalaridan soliq\*. To'g'ri va egri soliqlar.

### **Frantsiya davlati soliq tizimining tuzilishi**

Frantsiya davlati soliqqa tortilish printsiplari, soliqlarni tuzulishlari va ularni Evropa Iqtisodiy Ittifoqi davlatlariga nisbatan o'ziga xosligi\*.

Soliqlarning turlari. Daromad solig'i: jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i: korxonalarining daromad solig'i; yuqori foyda va qimmatbaho qog'ozlarga qo'yiladigan daromadlarni soliqqa tortilishini o'ziga xos tartibi. Iste'mol solig'i. QQS.

Kapital uchun soliq\*. Ro'yxatga olish badallari. Mulk egalari va merosxo'rlik soliqlari. Mahalliy hokimiyatlarning soliq-byudjet huquqlari. To'g'ri mahalliy soliqlar.

### **Yaponiya davlati soliq tizimining tuzilishi**

Urushdan keyingi soliq islohoti. Yaponiya davlati hokimiyat organlarining tuzilishi\*. Byudjet va soliq tizimini tuzilish asoslari, o'ziga xos xususiyatlari va Evropa mamlakatlari soliq tizimi bilan solishtirma taqqoslash\*.

Soliqlarning guruhlanishi: davlat soliqlari, prefektura soliqlari, mahalliy soliqlar.

Soliqlarni byudjet o'rtasida taqsimlanishi, byudjetlardagi salmog'i, iqtisodiy ahamiyati va ularni boshqarishdagi ta'siri.

### **Kanada davlati soliq tizimining tuzilishi**

Kanada davlati soliq tizimi tuzilishi printsip va mexanizmlarni tashkil etilishi\*. Soliqlarning tuzilishi va ularni o'ziga xos xususiyatlari. Byudjet tizimining bo'g'inlari va mos ravishda soliqlarning byudjetga daromad keltirish mexanizmi.

Soliqlarning turlari, daromad solig'i, jismoniy shaxslardan daromad solig'i, korxonalar daromadiga soliq. Egri iste'mol soliqlari: sotuvdan soliq, bojxona boji, xizmatlariga soliq. Mulk soliqlar: er solig'i, erdan foydalanganlik uchun soliq.

### **Rossiya Federatsiyasi soliq tizimining tuzilishi**

Rossiya Federatsiyasi soliqlari klassifikatsiyasi\*. Federal, respublika va mahalliy soliqlar tarkibi\*. Korxonalar va tashkilotlar foydasiga soliq: soliqning mohiyati, soliq stavkasi, soliq to'lash muddati, soliq imtiyozlari, hisoblash tartibi. Jismoniy shaxslar daromadiga soliq; soliqning mohiyati, soliqqa tortiladigan daromad va soliq imtiyozlari. Qo'shilgan qiymat solig'i. QQSning asosiy stavkalari. Boshqa to'lovlar. Bojxona bojlari.

### **Shveysariya davlati soliq tizimining tuzilishi**

Shveysariya davlati organlarini tuzilishi\*. Byudjet va soliq tizimi tuzilish printsiplari va asoslari. Soliqlarning byudjet bo'g'inlarida taqsimlanishi. Korporatsiyalardan olinadigan soliq, QQS, mol-mulk solig'i. Mol-mulkka soliq, daromadga soliq, mahalliy soliqlar. Aholi daromadlarini soliqqa tortishdagi muhim xususiyatlar, soliqdan engilliklar\*.

### **Italiya davlati soliq tizimining tuzilishi**

Italiya davlatida soliqlarning vujudga kelishi va ahamiyati.

Italiyada bilvosita soliqlarning xususiyatlari\*. QQS stavkasi, QQS bo'yicha beriladigan imtiyozlar. Aktsiz solig'i stavkalari, to'lash muddatlari, hisoblash tartibi. Jismoniy shaxslar daromadlariga soliq. Erga egalik qilish solig'i\*. Ijaradan olingan

daromadga soliq. Jismoniy shaxslar daromadiga soliqning stavkalari. Reklama solig'i. Gerb yig'imi. Reestr yoki qayd qilish yig'implari. Davlat komission yig'implari\*.

### **Daniya davlati soliq tizimining tuzilishi**

Daniya soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari\*. Federal va mahalliy soliqlar.

Kapital bo'yicha operatsiyalarni soliqqa tortish. Investitsiyalarga solinadigan soliq. Korxonalar daromadini soliqqa tortish tartibi. Soliqqa tortiladigan daromadning tarkibi\*.

### **Avstriya davlati soliq tizimining tuzilishi**

Avstriya davlati iqtisodiy rivojlanishida soliqlarning o'rni\*. Soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari. Soliqlarni guruhlanishi. Byudjet tizimi va unga mos ravishda soliqlarni taqsimlanishi.

Soliqqa tortishda belgilangan shartlar, maxsus qoidalar va deklaratsiyaga oid qoidalar\*. Korxonalardan olinadigan soliqlar: daromad solig'i, QQS, tashqi tijoratdan soliq. Mol-mulk solig'i, aktsizlar, muhr solig'i, bojxona boji, egalik solig'i, import solig'i.

Aholidan olinadigan soliqlar: daromad solig'i, mol-mulk solig'i, transport sotib olishdan soliq, merosdan soliq.

### **Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida soliq tizimining tuzilishi**

MDH mamlakatlari soliqlar to'g'risida umumiy tushuncha. Soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari\*. Soliq organlarining tuzilishi va vazifalari. Soliq turlari. Egri va to'g'ri soliqlar. (Ukraina, Latviya va Gruziya misolida). Qo'shilgan qiymat solig'i. Jismoniy shaxslar daromadiga soliq. Soliq stavkalari. Soliq to'lash muddatlari. Umumdavlat va mahalliy soliqlar. Mol-mulk solig'i. Er solig'i. Mahalliy yig'implar tarkibi.

MDH davlatlari bilan Evropadagi boshqa davlatlar soliqlari o'rtasidagi qiyosiy tahlil\*.

### **Markaziy Osiyo davlatlarida soliq tizimining tuzilishi**

Markaziy Osiyo mamlakatlari soliqlari to'g'risida umumiy tushuncha. Soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari\*. Soliq organlarining tuzilishi va vazifalari. Soliq tizimining tarkibiy tuzilishi. Soliq turlari. Egri va to'g'ri soliqlar. (Qozog'iston, Qirg'iziston va Turkmaniston misolida).

Qo'shilgan qiymat solig'i. Aktsiz solig'i. Jismoniy shaxslar daromadiga soliq. Soliq stavkalari. Soliqqa tortish muddatlari. Soliqni hisoblash mexanizmi. Umumdavlat va mahalliy soliqlar. Mol-mulk solig'i. Er solig'i\*.

### **Boshqa davlatlar soliq tizimi va ba'zi bir soliq turlarini o'ziga xos xususiyatlari**

Turkiya davlati soliq tizimi\*. Niderlandiya davlati soliq tizimi. Suriya davlati soliq tizimi\*. Angliya davlati soliq tizimi. Korxonalaridan olinadigan soliqlar\*; Aholidan olinadigan soliqlar; To'g'ri va egri soliqlar; Davlat va mahalliy soliqlar.

#### **Rivojlangan xorijiy davlatlarning soliq tizimi tajribalarini respublikamizda foydalanish imkoniyatlari**

AQSh davlati soliq tizimini O'zbekiston soliq tizimi bilan qiyosiy tahlili\*. AQSh davlati soliq tizimidan respublika soliq tizimida foydalanish masalasi. Buyuk Britaniya, Frantsiya davlatlari soliq tizimlarini O'zbekiston soliq tizimi bilan solishtirma tahlili\*. Nazariy xulosalar va amaliy takliflar.

#### **4. INFORMATsION-TEXNIK VOSITALAR**

Bu fanni o'qitish jarayonida quyidagi zamonaviy texnik vositalardan foydalanish belgilangan:

1. Kompyuter;
2. Audio va video jihozlar;
3. Dioproektor;
4. Kodaskop;
5. Internet tarmog'i saytlari:

- E-mail: [mail@finstat.ru](mailto:mail@finstat.ru)  
<http://www.finstat.ru/>
- E-mail: [valeo@etel.ru](mailto:valeo@etel.ru)
- <http://www.alpbook.ru/>  
E-mail: [alpina@alp.ru](mailto:alpina@alp.ru)

#### **5. O'ZLASHTIRISH NAZORATI**

Fan bo'yicha talabalarning o'zlashtirishlarini baholash semestr (o'quv yili) davomida muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi turlar orqali amalga oshiriladi:

- joriy baholash (JB);
- oraliq baholash (OB);
- yakuniy baholash (YaB).

JB va OB turlari uchun belgilangan ballar miqdori o'quv rejasida fanga semestr (o'quv yili) uchun ajratilgan soatning 70 foizi, yakuniy baholash esa 30 foiz miqdorida belgilanadi.

Fan bo'yicha dastur to'la o'tilgandan keyin YaB "yozma ish" shaklida (o'quv rejasiga ko'ra) o'tkaziladi.

Tayanch tushunchalarga asoslangan yozma ishni o'tkazish tartibi "Reyting tizimining yakuniy baholash bosqichida" "yozma ish" usulini tatbiq etish bo'yicha Namunaviy Nizom bilan belgilanadi. Semestr (o'quv yili) davomida o'qitilgan fan bo'yicha 55 va unda yuqori foizni to'plagan talaba qoniqarli o'qiyotgan hisoblanadi. Fan bo'yicha maksimal ballning 55 foizidan kam ball to'plagan talaba qoniqarsiz o'qiyotgan (akademik qarzdor) hisoblanadi.

## **6. ADABIYO TLAR**

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari -T.: O'zbekiston, 1998.
2. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlash-tirish yo'lida. -T.: O'zbekiston, 1995.
3. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. -T.: O'zbekiston, 1997.
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O'zbekiston 1998.
5. Yo'ldoshev M., Tursunov Y. Soliq huquqi -T.: Moliya, 2000.
6. Malikov T. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. -T.: Akademiya, 2002.
7. Nalogi i nalogooblajenie v voprosax i otvetax: chast 1. -T.: GNK, 1998.
8. Nalogi i nalogooblajenie v Rossiyskoy Federatsii (uchebnik dlya VUZov). -M.: Knijniy mir, 1999.
9. Nalogi pod.red. D.G Chernika (uchebnoe posobie). -M.: Finansi i statistika, 1998.
10. Finansi (Pod. red. Drobozinoy L.A.) -M.: Yuniti, 2000.
11. Xvan L.B. Soliq huquqi. -T.: Konsaudit inform, 2001.
12. Yahyoev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti -T.: G'. G'ulom, 2000.
13. Yahyoev Q. O'zbekistonning solikli va soliqsiz to'lovlari. -T.: 1999.
14. Chernik D.G. Nalogi v rinochnoy ekonomike. -M.: Yuniti, 2000.

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Dernberg R. Mejdunarodnoe nalogooblojenie. -M., 1997.
2. Gutnik V. Finansovaya sistema // Finansovie vesti. 1998. № 26.
3. Kozirin A. Nalogovoe pravo zarubejnix stran. -M., 1995.
4. Nalogovie sistemi zarubejnix stran (2-e izdanie) -M.: Zakon i pravo, 1997.
5. Nalogi, 4-izd. Uchebnoe posobie. -M.: Finansi i statistika, 1999.

6. Nalogovoe pravo i nalogi, (pod red. Brizgalina V.) -M., 1998.
7. Nalogi zarubejnih stran, (pod red. Knyazeva V.G.) -M., 1997.
8. Sutirin S., Pogorletskiy A., Nalogi i nalogovoe planirovanie v mirovoy ekonomike. - M.: S-Pb., 1998.
9. Yaponiya: iqtisodiy, jamiyat va fan-texnika taraqqiyoti, (Pozner Ya., Zaytsev V.) – M.: Nauka, 1999.

Yutkina I., Nalogi i nalogooblojenie. - M.: Yutkina, 2001.